


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60710100 – Kimyo muhandisligi bakalavriat ta'lim  
yo'nalishining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
Toshkent kimyo-texnologiya instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” 06 dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>9</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>20</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>21</b>
<b>5.</b>	<b>Dual ta'lim bo'yicha o'qitishga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>27</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>28</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>31</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

60710100 – Kimyo muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, masofaviy va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60710100 – Kimyo muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Kimyo muhandisligi fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim yo'nalishiga oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va soha korxonalarida muhandis-texnolog.

60710100 - Kimyo muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, soha bo'yicha ishlab chiqarish korxonalarida,

laboratoriyalarda kompleks masalalarni yechish, bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ishlab chiqarish;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *foydalanish va xizmat ko'rsatish;*
- *axborot-tahliliy faoliyatida.*

**1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60710100 - Kimyo muhandisligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

O'zbekistonda va horijda chop etilgan sohaga oid ilmiy-texnik axborotlar va manbalarni o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish;

mavzu bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy izlanish natijalarini amaliyotga tatbiq etish.

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

Kimyo muhandisligi fani sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

Fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;

nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

mehnat jarayonida xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;

sohlom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirisho‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;

soha bo‘yicha belgilangan muassasalarda va kasbiy faoliyatga taaluqli zavod va korxonalarda belgilangan tartibda faoliyat ko‘rsatish;

pullik ta‘lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xom ashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasini tuzish;

namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;

avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini o‘z ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash.

mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko‘rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko‘rish;

texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash uslublari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

**Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:**

Kimyo sanoat sohaslarida ishlab chiqarish texnologik jarayonlarini loyihalash, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

organik moddalar sintez qilish, texnologiyasini o'rganish, klassifikatsiyalash, tabiiy va sintetik xom ashyo va materiallarini ishlab chiqarish, qayta ishlash texnologik jarayonlarini takomillashtirish yo'llarini o'rganish, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

zamonaviy korxonalar jihozlari, raqamli-dasturli boshqariladigan jihozlalar va korxonalar ichki transporti tizimini takomillashtirish;

sirt faol va organik yuvuvchi moddalar sintez qilish, ularning texnologiyasini o'rganish, sanoat texnologik qurilmalari bilan tanishish, yuvish vositalari ishlab chiqarish texnologik sxemaning asosiy qurilmalarini loyihalash, usullarini o'zlashtirish omillari ta'sirini o'rganish, sirt faol moddalar va yuvish vositalarini olish jarayonlarini ilmiy baholash va tahlil qilish; sirt faol moddalar va yuvish vositalarini sintez qilish jarayonlarini hisoblash usullarini o'zlashtirish, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

polimer, elastomer, lok-bo'yoq va plastmassalarni ishlab chiqarish va qayta ishlashda texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xom ashyolarini ishlov berish va maxsulotlarni ishlab chiqarish loyixasini tuzish;

tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar bo'yicha matematik, axborot va imitatsion modellarni ishlab chiqish;

qurilish materiallari xom ashyolarini o'rganish, ularni sintez qilish, texnologiyasini o'rganish, klassifikatsiyalash, tabiiy va sintetik xom ashyo va materiallarini o'rganish, qayta ishlash texnologik jarayonlarini takomillashtirish yo'llarini o'rganish, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

silikat materiallari sintez qilish, olish texnologiyasini o'rganish, sanoat texnologik qurilmalari bilan tanishish, shisha, keramika va bog'lovchi materiallar ishlab chiqarish texnologik sxemaning asosiy qurilmalarini loyihalash, usullarini o'zlashtirish omillari ta'sirini o'rganish, shisha, keramika va bog'lovchi materiallar olish jarayonlarini ilmiy baholash va tahlil qilish; shisha, keramika va bog'lovchi materiallar sintez qilish jarayonlarini hisoblash usullarini o'zlashtirish, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

chinni-fayans buyumlar sintez qilish, olish texnologiyasini o'rganish, sanoat texnologik qurilmalari bilan tanishish, chinni-fayans buyumlar ishlab chiqarish texnologik sxemaning asosiy qurilmalarini loyihalash, usullarini o'zlashtirish omillari ta'sirini o'rganish, chinni-fayans buyumlar olish jarayonlarini ilmiy baholash va tahlil qilish; shisha, keramika va bog'lovchi materiallar sintez qilish jarayonlarini hisoblash usullarini o'zlashtirish, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

elektrokimyoviy ishlab chiqarish texnologiyasini o'rganish, sanoat texnologik qurilmalari bilan tanishish, elektrokimyoviy ishlab chiqarish korxonalarining jihozlari va ularning texnologik sxemalarini loyihalash, usullarini o'zlashtirish omillari ta'sirini o'rganish, elektroliz usulida rangli metallar olish jarayonlarini ilmiy baholash va tahlil qilish; noorganik moddalarni elektrokimyoviy sintez qilish jarayonlarini hisoblash usullarini o'zlashtirish, hamda ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

xomashyo va mahsulotlarning tuzilishi, fizik-mexanik xossalari, mahsulotlarning texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlari, moddiy balans, ishlab chiqarish rejimlari va normalari, ishlab chiqarishning asosiy (texnologik) va yordamchi jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'lishi, texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xomashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish loyihasini tuzishni amalga oshira olishi;

to'qimachilik matolarini pardoqlashda mavjud texnologiyalar va texnik vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko'rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko'rish, to'qimachilik matolarini pardoqlashning texnologik jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

tola hosil qiluvchi polimerlarni olish texnologiyasi va jihozlari, ularning ko'rsatkichlarini baholash, polimerlar sintezi, noto'qima matolar, nanotolalar ishlab chiqarish, bo'yovchi va to'qimachilik yordamchi moddalar, bo'yash jarayonidagi ekologik muammolar va ularni barataraf etish yo'llari, kimyoviy tolalar olish usullari, tola olish jihozlari, tabiiy va kimyoviy tolalar asosidagi aralash tolali materiallarni kimyoviy pardoqlash texnologiyasi uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

sellyuloza-qog'oz sanoatida xomashyo va mahsulotlarning tuzilishi, fizik-mexanik xossalari, mahsulotlarning texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlari, moddiy balans, ishlab chiqarish rejimlari va normalari, ishlab chiqarishning asosiy (texnologik) va yordamchi jarayonlari, texnologik reglament asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tanlash, xomashyolarga ishlov berish va mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi;



ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi; matematik tahlil, chiziqli algebra, analitik geometriya haqida tasavvurga ega bo'lishi va ularning amaliy topshiriqlarni bajarishda qo'llashi;

differensial va integral hisob, matritsalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

asosiy tabiiy hodisalarni tushunishi; moddiy nuqta kinematikasi va dinamikasi, impulsning saqlanish qonuni, ish, kuch, energiya, elektr maydoni, o'zgarmas elektr toki, elektromagnetizm, optika, termodinamika, atom fizikasi, radioaktivlik, nisbiylik nazariyasi haqida tushunchaga ega bo'lishi va ulardan hisob ishlarida foydalana olishi;

umumiy metrologiya asoslari (fizik kattaliklar, o'lchov birliklari sistemasi, o'lchash va h.k.); sistematik, tasodifiy, umumiy va chegeraviy xatoliklar haqida tasavvurga ega bo'lishi; o'lchash vositalarini kalibrlash, massa, temperatura, suyuqlik va gazlar sarfini hisoblash; balandlik va chuqurlik, rezbalarning tashqi va ichki diametrlarini, burchaklarini o'lchash, noorganik moddalar va havoning namligini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tabiiy muhit, ekotizimlar va insoniyat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ekologik tahdidlar, o'rmonlarning bio xilma-xilligi va vazifalari, o'rmonlarni boshqarishning asosiy tamoyillari, atrof-muhitni muhofazalash usullari, tiklanuvchan xom ashyolardan foydalanish va ularni utilizatsiya qilish, ekologik toza texnologiyalar haqida tasavvurga ega bo'lishi; suv sifatini tekshirish, noorganik moddalar materiallar tarkibidagi formaldegidni aniqlash, spektrofotometrik usulda temir miqdorini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

moddalarning korpuskulyar-to'lqin nazariyasi, atom tuzilishi, kimyoviy bog'lar, modda holatlari, moddalarning xossalari, kimyoviy muvozanat, kislota-ishqor dissotsiatsiyasi, pH shkalasi, gidroliz, oksidlanish va qaytarilish reaksiyalari haqida tasavvurga ega bo'lishi; kimyoviy masalalarni yechish, konsentratsiyani hisoblash, asosiy laboratoriya jihozlaridan foydalana olishi, filtrlash, kristallash, quritish, o'lchash kabi asosiy kimyoviy operatsiyalarni, kimyoviy tahlilni amalga oshira olishi, noorganik preparatlar, kation va anionlarning rang reaksiyalarini bilishi va ulardan foydalana olishi;

organik moddalarning va birikmalarning nomlari, olinishi va reaksiyalarini, laboratoriya ishlarini bajarish qoidalari va organik sifat tahlilining asosiy metodlari, alifatik va aromatik uglevodorodlar, galogenlangan hosilalar, spirtlar va fenollar, aldegidlar va ketonlar, karbon kislotalar va ularning hosilalari, aminlar va ularning hosilalari, oqsillar, uglevodlar, yog'lar, kimyoviy reaksiya mexanizmlari haqida tasavvurga ega bo'lishi; reaksiya yo'nalishini aniqlash, asosiy laboratoriya jihozlaridan foydalanish, aralashmalarni ajratish va organik birikmalarni tozalash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

noorganik moddalarning kimyoviy tarkibi va uni aniqlash, noorganik moddalardan kimyoviy moddalarni ajratib olish va uni kimyoviy modifikatsiyalash haqida tasavvurga ega bo'lishi; noorganik moddalarni ekstraksiyalash, kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil qilish, kimyoviy modifikatsiyalash, kimyo laboratoriyasidagi

asosiy jihozlar va kimyoviy idishlardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; element atomlarining tuzilishi, kimyoviy bog‘lanishlar, eritmalar, konsentratsiyalarni ifodalash, eritmalaridagi muvozanatlar, kimyoviy reaksiyalar tezligini hisoblash ko‘nikmalarini shakllantirish;

noorganik moddalar kimyosi, kimyoviy qayta ishlash usullarini bilishi; noorganik moddalarni boyitish, noorganik moddalarni gidrolizlash, noorganik moddalar kompozitlari, termonoorganik moddalar, xom ashyo briketlari olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

texnik chizma qoidalari, texnik hujjatlarni o‘qish, mashina elementlarining chizmalari, mashina detallarini chizish va uning prinsiplari haqida ma’lumotga ega bo‘lishi; kompyuter grafikasi orqali mashina detallari va mebel elementlarini chizish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

elektrotexnika va elektronika asoslarini, elektron komponentlarni, elektr qurilmalar va mashinalarni, yuritish qurilmalarini bilishi hamda elektr va elektron o‘lchashlarni amalga oshirish, noorganik moddalarga ishlov berish sohasidagi elektr asboblaridan to‘g‘ri foydalanish, elektr zanjirlarni hisoblash, elektron komponentlar va sxemalar bilan ishlash, shovqindan himoya va energiyatejamkorlik masalalarini hal qilish, integral mikrosxemalardan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

mashina detallarini standartlashtirish, tasniflash, unifikatsiyalash, ekspluatatsiya qilish, noorganik moddalarsozlikda qo‘llaniladigan mashinalar, jihozlar va ularning konstruksiyalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi; chokli, payvandli va rezbali birikmalarni, sirpanish podshipniklarini, tishli g‘ildiraklarni, oddiy mexanik qurilmalarni loyihalash va hisoblash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

texnik termodinamikaning asosiy tushunchalari, massa va energiya balansi, ideal gazning ishi va tenglamalari, yoqilg‘ining yonishi, bug‘ va uning energiyasi, Id-diagramma, kondensat tashuvchilar, issiqlik almashish haqida tasavvurga ega bo‘lishi; noorganik moddalarda ishlatiladigan yuritgichlar va turbinalarni, kondensat tashuvchilarni hisoblash, Id-diagrammadan foydalanish, noorganik moddalarga gidrotermik ishlov berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

texnik masalalarni yechishdagi klassik mexanika qonunlari, skalyar va vektor ko‘paytmalar, vektor momenti, vektor juftligi, asosiy moment, vektor tizimlari turlari, moment maydoni, og‘irlik markazi, ishqalanish qonunlari, statika qonunlari, muvozanat shartlari, kuch reaksiyalari, cho‘zilish va siqilish, Puasson koeffitsienti, zo‘riqish, ko‘ndalang deformatsiya koeffitsienti, inersiya o‘qlari, inersiya momentlari, eguvchi momentlar, normal va urinma kuchlanishlar, siljish, buralish, murakkab kuchlar haqida tushunchalarga ega bo‘lishi va ulardan texnik masalalarni yechishda foydalana olishi;

avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash tushunchalari, ishlab chiqarish jarayonlari, ochiq, yopiq va kaskadli boshqaruv tizimlari, boshqarish ob‘ektlarining turlari, mantiqiy protsessorlar, avtomatik boshqaruv tizimlarini modellashtirish va simulyatsiyalash, dasturlanuvchi mantiqiy kontrollerlar, pnevmo elektrik tizimlar, temperatura, sath va nam o‘lchagichlar, raqamli-dasturli boshqaruv jihozlarini kompyuterda modellashtirish, noorganik moddalarsozlikdagi CAM (Computer Aided Manufacturing) texnologiyalari, materiallarni avtomatik aniqlash tizimlari (shtrix-

kodlar, radiochastatili tizimlar), raqamli-dasturli boshqariladigan (ChPU) jihozlarni dasturlash metodlari, ish harakatlarini dasturlash, podprogrammalar, koordinata tizimlari, haqida tasavvurga ega bo’lishi; ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, ChPU jihozlarni dasturlash, kompyuterda CAD/CAM tizimlarida loyihalash ko’nikmalariga ega bo’lishi;

organik birikmalar olish reaksiyalari, ularning sinflanishi, hosil bo’lish mexanizmlari, fizik-kimyoviy xossalari, organik birikmalar ishlab chiqarish va qayta ishlash xom ashyolari, monomerlar va oraliq moddalar, laboratoriyada asbob uskuna va jixozlardan foydalanish ko’nikmasi, texnologik va ekspluatasion xossalari, organik moddalarni modifikasiyalash, organik moddalar va ular asosidagi materiallarni ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologik jarayonlari, organik kompozosion birikmalar olish texnologiyasi, tabiiy va sintetik moddalar ishlab chiqarish va qayta ishlash jixozlari, qo’shimcha uskunalar, organik moddalar ishlab chiqarish korxonalarini texnologik loyihalash, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, texnologik jarayon strukturasi, texnologik loyihalash uchun ma’lumotlar, konstruktorlik hujjatlari, loyihalarni iqtisodiy baholash, yuqori molekulari birikmalar ishlab chiqarish va qayta ishlashda moddiy, texnologik va issiqlik sarfini tuzish va hisoblashning nazariy va amaliy bilimlarni berish ko’nikmalariga ega bo’lishi;

sirt faol va organik sintetik yuvish vositalari kimyoviy asoslari va ishlab chiqarish jarayonlari texnologiyasi, tuzilishi va xossalari, sanoat texnologik qurilmalari, loyihalash, jarayonlarni jihozlashning texnologik loyihalash xususiyatlari hamda usullarini o’zlashtirish omillari ta’sirini o’rganish, soha korxonalarini loyihalash, uskuna jixozlar texnologik parametrlarini takomillashtirish, sirt faol moddalarni sifatini yaxshilash, sirt faol moddalar asosida yuvuvchi, tozalovchi samarali tarkiblarini ishlab chiqish, anionfaol, kationfaol va amfoter organik moddalar olishning katalitik jarayonlarini yaratish, xom ashyo resurslaridan unumli foydalanish, jarayonlarni ilmiy baholash va tahlil qilish hamda hisoblash usullarini o’zlashtirish ko’nikmalariga ega bo’lishi;

yuqori molekulari birikmalar sinflanishi, xosil bo’lish reaksiya mexanizmlari, fizik-kimyoviy qonuniyatlari, polimerlar va plastmassalarni ishlab chiqarish va qayta ishlash xom ashyolari, qo’shimchlar, laboratoriyada asbob, uskuna va jihozlardan foydalanish ko’nikmasi, texnologik va ekspluatasion xossalari, reologik xususiyatlar, polimerlarni modifikasiyalash, polimerlar va ular asosidagi materiallarni ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologik jarayonlari, polimer kompozosiyalar olish texnologiyasi, polimer va plastmassa ishlab chiqarish va qayta ishlash jihozlari, qo’shimcha uskunalar, polimer va plastmassa materiallar korxonalarini texnologik loyihalash, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, texnologik jarayon strukturasi, texnologik loyihalash uchun ma’lumotlar, konstruktorlik hujjatlari, loyihalarni iqtisodiy baholash, yuqori molekulari birikmalar ishlab chiqarish va qayta ishlashda moddiy, texnologik va issiqlik sarfini tuzish va hisoblashning nazariy va amaliy bilimlarni berish ko’nikmalariga ega bo’lishi;

lok bo’yoq materiallar sinflanishi va tarkibi, xosil bo’lish reaksiya mexanizmlari, fizik-kimyoviy qonuniyatlari, lok bo’yoq materiallar ishlab chiqarish va qayta ishlash xom ashyolari, qo’shimchlar, laboratoriyada asbob, uskuna va

jixozlardan foydalanish ko‘nikmasi, reologik xususiyatlar, polimerlarni modifikatsiyalash, bog‘lovchilar va ular asosidagi materiallarni ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologik jarayonlari, lok-bo‘yoq materiallar turlari va qo‘llanilishi, lok bo‘yoq materiallar olish texnologiyasi, lok bo‘yoq materiallar ishlab chiqarish va qayta ishlash jixozlari, qo‘shimcha uskunalar, texnologik va ekspluatasion xossalari, lok bo‘yoq materiallar korxonalarini texnologik loyihalash, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, texnologik jarayon strukturasi, texnologik loyihalash uchun ma’lumotlar, konstruktorlik hujjatlari, loyihalarni iqtisodiy baholash, yuqori molekulali birikmalar ishlab chiqarish va qayta ishlashda moddiy, texnologik va issiqlik sarfini tuzish va hisoblashning nazariy va amaliy bilimlarni berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

rezina-texnik buyumlarni sinflanishi va tarkibi, fizik-kimyoviy qonuniyatlari, kauchuk va elastomerlar ishlab chiqarish va qayta ishlash xom ashyolari, qo‘shimchalar, xom ashyolarni tayyorlash, laboratoriyada asbob, uskuna va jixozlardan foydalanish ko‘nikmasi, reologik xususiyatlar, rezina materiallar turlari va qo‘llanilishi, texnologik va ekspluatatsion xossalari, kauchuk, rezina va ular asosidagi materiallarni ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologik jarayonlari, elastomer materiallar olish texnologiyasi, elastomer materiallar korxonalarini texnologik loyihalash, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, texnologik jarayon strukturasi, texnologik loyihalash uchun ma’lumotlar, konstruktorlik hujjatlari, loyihalarni iqtisodiy baholash, rezina-texnik buyum materiallari ishlab chiqarish va qayta ishlash jixozlari, qo‘shimcha uskunalar, rezina ishlab chiqarish va qayta ishlashda moddiy, texnologik va issiqlik sarfini tuzish va hisoblashning nazariy va amaliy bilimlarni berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

qurilish materiallarning xususiyatlari, ularning turlari va xossalari, ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan turli xom ashyo materiallari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishi, qurilish materiallar korxonalarining ichki transportlari va mexanik qurilmalari, pnevmatik konveyerlar va chang yutish tizimlari, ventilyatorlar, chang to‘plagichlar, siklonlar, chang tutish filtrlari, bunkerlar, yong‘inni o‘chirish tizimlari, noorganik moddalarsozlik korxonasidagi transport va yordamchi vositalar, saralagichlar, maydalagichlar, briketlash va granulalash mashinalari, eguvchi qurilmalar haqida tasavvurga ega bo‘lishi; domkratlar, lentali, rolikli va vintli konveyerlar, yuk ko‘tarish va tashish kranlari va ularning turlari, pnevmatik qurilmalar, ventilyatorlarni hisoblashni bilishi;

qurilish materiallar(shisha, keramika, bog‘lovchi) va buyumlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasi, qurilish materiallar va buyumlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xom-ashyolar, xom ashyolarni qayta ishlash jarayonlari, bog‘lovchi va sement, shisha, shishakeramika, keramik materiallar turlari va qo‘llanilishi, keramik materiallar ishlab chiqarish va ishlov berish, qurilish materiallar va buyumlar ishlab chiqarishdagi jihozlar va texnologiyalarni takomillashtirish usullarini, qurilish materiallar ishlab chiqarishda massa takriblarni tuzish va hisoblashning asosiy usullari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishi;

qurilish materiallar(shisha, keramika, bog‘lovchi) tuzilishi, matritsali va dispers faza, zarrachalar, tolalar va struktura darajasida mustaxkamlashtirish, qurilish materiallarning mikrostrukturasi, g‘ovakligi, xossalari, mexanik mustaxkamligi,

keramik materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi, tayyorlash usullari, xossalari va qo'llanilishi, keramika asosida materiallar, shisha asosida materiallar va ishlab chiqarish texnologiyasi, bog'lovchi materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi, bog'lovchi materiallarning asosiy turlari, materiallar xom ashyosi, xom ashyo aralashmasining xisobi, sintezi, xossalari, xom ashyo va maxsulotga qo'yiladigan talablar, qurilish materiallar ishlab chiqarish usullari, texnologik sxemalari, texnologik rejimlari, filtrlash, suvsizlantirish va zichlash jarayonlari, chiqindi suvlarning rekuperatsiyasi, poliakrilamidlar, qotish va namlash jarayoni, ishlab chiqarishdagi chiqindilar va ularni qo'llanilishi;

soha korxonalarida ishlatiladigan uskuna va jixozlarning rivojlanish tendensiyalari, uskuna va jixozlarning nazariyasi va hisoblash asoslari, uskuna va jixozlarning turlari, tuzilishi, ishlatilish doirasi, qurilish materiallar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan uskuna va jixozlarni aniq korxonalar sharoitlar uchun texnik va iqtisodiy asoslangan holda to'g'ri tanlash, uskuna va jixozlarni optimal ko'rsatgichlari va ish rejimlarini tanlash maqsadida hisoblash, soha korxonasida transport tizimini to'g'ri tanlash va loyihalash ko'nikmalarini hosil qilishi;

qurilish materiallar korxonalarida jihozlari, ularning konstruksiyasi va xarakteristikasi, ishlatilishi va hisobi, ularning konstruktiv elementlari va parametrlari, ishlatilish sohalari, kesish asboblarining va mashina detallarining yedirilishi va tipik nuqsonlari, jihozlarga xizmat ko'rsatish, maydalash jihozlari, presslar, briketlash jihozlari, pellet mashinalari, pardozlash jihozlari haqida tasavvurlarga ega bo'lishi; jihozlarning asosiy parametrlarini, konstruksiyalarini, qo'llanilishini tahlil qilish, jihozlarni tanlash, ishga tayyorlash, jihozlarda ishlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

soha korxonalarini loyihalash asoslari, korxonalarini loyihalashtirish, normativ xujjatlar bilan tanishish va ulardan foydalanish, aniq korxonalar sharoitlar uchun joyli texnik va iqtisodiy asoslangan holda to'g'ri tanlash va loyihalashtirish bo'yicha tassavvur hosil qilishi;

qurilish materiallar (shisha, keramika, bog'lovchi) ishlab chiqarish sohasidagi startap loyihalari, yangi mahsulotlar va ularni ishlab chiqarishni rejalashtirish, loyiha talablari, hisoblash usullari, loyiha xujjatlarining tuzilishi, loyihalar taqdimoti, loyihalarni iqtisodiy baholash haqida tasavvurga ega bo'lishi; yangi mahsulot ishlab chiqarishni loyihalash, startap loyihasi hujjatlarini ishlab chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

qurilish materiallar (shisha, keramika, bog'lovchi) korxonalarini texnologik loyihalash, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, texnologik jarayon strukturasi, texnologik loyihalash uchun ma'lumotlar, konstruktorlik hujjatlari, loyihalarni iqtisodiy baholash haqida tasavvurga ega bo'lishi; jihozlarning zaruriy sonini va ishlab chiqarish maydonini hisoblash, korxonalar chizmalarini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

soha korxonalarida ishlatiladigan issiqlik qurilmalarining rivojlanish tendensiyalari, issiqlik jarayonlarining nazariyasi va hisoblash asoslari, issiqlik qurilmalarining turlari, tuzilishi, ishlatilish doirasi, qurilish materiallar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan issiqlik qurilmalarini aniq korxonalar sharoitlar uchun texnik

va iqtisodiy asoslangan holda to‘g‘ri tanlash, ularning optimal ko‘rsatgichlari va ish rejimlarini tanlash maqsadida hisoblash, soha korxonasida transport tizimini to‘g‘ri tanlash va loyihalash ko‘nikmalarini hosil qilishi;

quritish agentlari, Id–diagramma, quritishdagi siklik jarayonlar, zichligi va mexanik xossalarning o‘zgarishi, quritish kinetikasi, ichki zo‘riqish, deformatsiyalanish va yorilish, konvektiv quritish qonuniyatlari va rejimlari, noorganik moddalarni suvsizlantirish usullari, atmosfera sharoitida quritish, quritish kameralari va ularning turlari, ishlab chiqarishdagi texnologik, energetik va aerodinamik hisoblashlarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

kristallarning simmetriya nazariyasi, simmertiya elementlari va sinflari, ularning tarkibi va strukturalari, kategoriyalari va singoniyalari, ko‘p qirrali kristallarning shakllari va o‘shishning ketma-ketligi qonuniyatlari, minerallar haqida tushunchalar, ularning tarkibi va strukturasi, minerallarning hosil bo‘lish sharoiti va agregat holatlari, keramika, shisha va sitallar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan minerallarning mineralogik va kimyoviy tarkiblarini bilishi;

qurilish buyumlar ishlab chiqarish, texnologik jarayon strukturasi, materiallarni strukturasi, mexanik ishlov berish, xom ashyolarga birlamchi ishlov berish, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash, texnologik jarayonni ishlab chiqish, material balansini, jihozlar hisobi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi; ishlab chiqarish uchun material balansini, jihozlar hisobi, ishlab chiqarish maydoni, texnologik jarayon sxemasi va bayonini tuzish malakalariga ega bo‘lishi;

bog‘lovchi materiallarning va xossalari, ishlab chiqarish texnologiyasi va jihozlari, ishlatilish sohalari, ishlatiladigan xom ashyo va materiallar, texnologik parametrlar va rejimlar, jihozlar va yordamchi qurilmalar, ularning konstruksiyasi haqida tasavvurga ega bo‘lishi; kompozitsion materiallar uchun material balansini tuzish va jihozlarni hisoblash, turli usullarda mahsulot ishlab chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;

silikat materiallarning xususiyatlari, ularning turlari va xossalari, ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan turli xom ashyo materiallar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishi, silikat materiallar korxonalarining ichki transportlari va mexanik qurilmalari, pnevmatik konveyerlar va chang yutish tizimlari, ventilatorlar, chang to‘plagichlar, siklonlar, chang tutish filtrlari, bunkerlar, yong‘inni o‘chirish tizimlari, noorganik moddalarsozlik korxonasidagi transport va yordamchi vositalar, saralagichlar, maydalagichlar, briketlash va granulalash mashinalari, eguvchi qurilmalar haqida tasavvurga ega bo‘lishi; domkratlar, lentali, rolikli va vintli konveyerlar, yuk ko‘tarish va tashish kranlari va ularning turlari, pnevmatik qurilmalar, ventilatorlarni hisoblashni bilishi;

silikat materiallar(shisha, keramika, bog‘lovchi) va buyumlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasi, silikat materiallar va buyumlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xom-ashyolar, xom ashyolarni qayta ishlash jarayonlari, bog‘lovchi va sement, shisha, shishakeramika, keramik materiallar turlari va qo‘llanilishi, keramik materiallar ishlab chiqarish va ishlov berish, silikat materiallar va buyumlar ishlab chiqarishdagi jihozlar va texnologiyalarni takomillashtirish usullarini, silikat

materiallar ishlab chiqarishda massa takriblarni tuzish va hisoblashning asosiy usullari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishi;

silikat materiallar(shisha, keramika, bog'lovchi) tuzilishi, matritsali va dispers faza, zarrachalar, tolalar va struktura darajasida mustaxkamlashtirish, silikat materiallarning mikrostrukturasi, g'ovakligi, xossalari, mexanik mustaxkamligi, keramik materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi, tayyorlash usullari, xossalari va qo'llanilishi, keramika asosida materiallar, shisha asosida materiallar va ishlab chiqarish texnologiyasi, bog'lovchi materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi, bog'lovchi materiallarning asosiy turlari, materiallar xom ashyosi, xom ashyo aralashmasining xisobi, sintezi, xossalari, xom ashyo va maxsulotga qo'yiladigan talablar, silikat materiallar ishlab chiqarish usullari, texnologik sxemalari, texnologik rejimlari, filtrlash, suvsizlantirish va zichlash jarayonlari, chiqindi suvlarning rekuperatsiyasi, poliakrilamidlar, qotish va namlash jarayoni, ishlab chiqarishdagi chiqindilar va ularni qo'llanilishi.

soha korxonalarida ishlatiladigan uskuna va jixozlarning rivojlanish tendensiyalari, uskuna va jixozlarning nazariyasi va hisoblash asoslari, uskuna va jixozlarning turlari, tuzilishi, ishlatilish doirasi, silikat materiallar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan uskuna va jixozlarni aniq korxonalar sharoitlar uchun texnik va iqtisodiy asoslangan holda to'g'ri tanlash, uskuna va jixozlarni optimal ko'rsatgichlari va ish rejimlarini tanlash maqsadida hisoblash, soha korxonasida transport tizimini to'g'ri tanlash va loyihalash ko'nikmalarini hosil qilishi;

silikat materiallar korxonalarini jihozlari, ularning konstruksiyasi va xarakteristikasi, ishlatilishi va hisobi, ularning konstruktiv elementlari va parametrlari, ishlatilish sohalari, kesish asboblarining va mashina detallarining yedirilishi va tipik nuqsonlari, jihozlarga xizmat ko'rsatish, maydalash jihozlari, presslar, briketlash jihozlari, pellet mashinalari, pardozlash jihozlari haqida tasavvurlarga ega bo'lishi; jihozlarning asosiy parametrlarini, konstruksiyalarini, qo'llanilishini tahlil qilish, jihozlarni tanlash, ishga tayyorlash, jihozlarda ishlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

silikat materiallar(shisha, keramika, bog'lovchi) korxonalarini texnologik loyihalash, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, texnologik jarayon strukturasi, texnologik loyihalash uchun ma'lumotlar, konstruktorlik hujjatlari, loyihalarni iqtisodiy baholash haqida tasavvurga ega bo'lishi; jihozlarning zaruriy sonini va ishlab chiqarish maydonini hisoblash, korxonalar chizmalarini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

soha korxonalarini loyihalash asoslari, korxonalarini loyihalashtirish, normativ xujjatlar bilan tanishish va ulardan foydalanish, aniq korxonalar sharoitlar uchun joyni texnik va iqtisodiy asoslangan holda to'g'ri tanlash va loyihalashtirish bo'yicha tassavur hosil qilishi;

silikat materiallar(shisha, keramika, bog'lovchi) ishlab chiqarish sohasidagi startap loyihalari, yangi mahsulotlar va ularni ishlab chiqarishni rejalashtirish, loyiha talablari, hisoblash usullari, loyiha xujjatlarining tuzilishi, loyihalar taqdimoti, loyihalarni iqtisodiy baholash haqida tasavvurga ega bo'lishi; yangi mahsulot ishlab

chiqarishni loyihalash, startap loyihasi hujjatlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

soha korxonalarida ishlatiladigan issiqlik qurilmalarining rivojlanish tendensiyalari, issiqlik jarayonlarining nazariyasi va hisoblash asoslari, issiqlik qurilmalarining turlari, tuzilishi, ishlatilish doirasi, silikat materiallar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan issiqlik qurilmalarini aniq korxonalar sharoitlar uchun texnik va iqtisodiy asoslangan holda to‘g‘ri tanlash, ularning optimal ko‘rsatkichlari va ish rejimlarini tanlash maqsadida hisoblash, soha korxonasida transport tizimini to‘g‘ri tanlash va loyihalash ko‘nikmalarini hosil qilishi;

quritish agentlari, Id–diagramma, quritishdagi siklik jarayonlar, zichligi va mexanik xossalarning o‘zgarishi, quritish kinetikasi, ichki zo‘riqish, deformatsiyalanish va yorilish, konvektiv quritish qonuniyatlari va rejimlari, noorganik moddalarni suvsizlantirish usullari, atmosfera sharoitida quritish, quritish kameralari va ularning turlari, ishlab chiqarishdagi texnologik, energetik va aerodinamik hisoblashlarni bajarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

kristallarning simmetriya nazariyasi, simmetriya elementlari va sinflari, ularning tarkibi va strukturalari, kategoriyalari va singoniyalari, ko‘p qirrali kristallarning shakllari va o‘shishning ketma-ketligi qonuniyatlari, minerallar haqida tushunchalar, ularning tarkibi va strukturasi, minerallarning hosil bo‘lish sharoiti va agregat holatlari, keramika, shisha va sitallar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan minerallarning mineralogik va kimyoviy tarkiblarini bilishi;

silikat buyumlar ishlab chiqarish, texnologik jarayon strukturasi, materiallarni strukturasi, mexanik ishlov berish, xom ashyolarga birlamchi ishlov berish, ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash, texnologik jarayonni ishlab chiqish, material balansi, jihozlar hisobi haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi; ishlab chiqarish uchun material balansi, jihozlar hisobi, ishlab chiqarish maydoni, texnologik jarayon sxemasi va bayonini tuzish malakalariga ega bo‘lishi;

kompozitsion materiallarning va xossalari, ishlab chiqarish texnologiyasi va jihozlari, ishlatilish sohalari, ishlatiladigan xom ashyo va materiallar, texnologik parametrlar va rejimlar, jihozlar va yordamchi qurilmalar, ularning konstruksiyasi haqida tasavvurga ega bo‘lishi; kompozitsion materiallar uchun material balansini tuzish va jihozlarni hisoblash, turli usullarda mahsulot ishlab chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;

chinni va fayans buyumlar ishlab chiqarish nazariyasi va texnologiyasi, chinni va fayans buyumlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xom-ashyolar, xom ashyolarni qayta ishlash jarayonlari, chinni va fayans buyumlar turlari va qo‘llanilishi, chinni va fayans ishlab chiqarish va ishlov berish, chinni va fayans buyumlar ishlab chiqarishdagi jihozlar va texnologiyalarni takomillashtirish usullarini, silikat materiallar ishlab chiqarishda massa takriblarni tuzish va hisoblashning asosiy usullari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni berishi;

chinni va fayans buyumlar tuzilishi, matritsali va dispers faza, zarrachalar, struktura darajasida mustaxkamlashtirish, chinni va fayanslarning mikrostrukturasi, g‘ovakligi, xossalari, mexanik mustaxkamligi, chinni va fayans buyumlar ishlab chiqarish texnologiyasi, tayyorlash usullari, xossalari va qo‘llanilishi, chinni va fayans



asosida materiallar va ishlab chiqarish texnologiyasi, xom ashyosi, xom ashyo aralashmasining xisobi, sintezi, xossalari, xom ashyo va maxsulotga qo‘yiladigan talablar, chinni va fayans buyumlar ishlab chiqarish usullari, texnologik sxemalari, texnologik rejimlari, filtrlash, suvsizlantirish va zichlash jarayonlari, chiqindi suvlarning rekuperatsiyasi, qotish va namlash jarayoni, ishlab chiqarishdagi chiqindilar va ularni qo‘llanilishi.

